

**UZLUKSIZ TA`LIMNI TASHKIL ETISHDA YANGI PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI**

Arslonova Inoyat Mo'minovna

Toshkent viloyati, Piskent tuman 1-son politexnikumi uslubchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o`qitish texnologiyasini tashkil etish hamda samarali yangicha pedagogik faoliyatni olib borish masalalari muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: Pedagogik texnologiya, metod, o`qitish, uzluksiz ta`lim, dars, oly maktab, jarayon.

KIRISH

Ta’kidlash lozimki, hozirgi davr o‘qitish shakl va metodlari talabalarni erkin, ijodiy fikrlashga, mustaqil ishslashga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu jarayonda o‘quvchi va talabalar ijodiy izlanishda, muammolar tahlili ostida uning yechimini topishga intiladi, guruhlar bilan ishslash jarayonida, talaba-talaba, o‘quvchi-o‘quvchi bilan muloqot orqali ularga birgalikda muammolar yechimi, tahliljarayoni va albatta baholashga zamin yaratiladi

Yurtimizda har tomonlama yetuk mutaxassislarga bo‘lgan e’tibor kundan– kunga oshib bormoqda. Shuning uchun ham respublikamizda barkamol shaxs va yetuk mutaxassislarni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bugungi kunda shaxs ta’lim jarayonining ob’ekti emas, balki uning sub’ektiga, asosiy harakalantiruvchi kuchiga aylandi. Bu jarayon esa ta’lim sohasida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish zaruriyatini ham keltirib chiqaradi.

Umuman olganda ta’lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalar masalasi mustaqillik yillarining dastlabki davrlaridan tilga olina boshlandi. Qabuljarayonlarida test texnologiyasidan foydalanish bu yo‘nalishni jadallashtirib yubordi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Xuddi shu kabi umumpedagogik texnologiyalarning ta’lim tizimiga kirib kela boshlashishi, iqtisodiy rivojlangan davlatlarning ta’lim tizimini ijodiy o‘rganishga asos bo‘lib xizmat qila boshladi. Xorijning ilg‘or pedagogik texnologiyalari tajriba sifatida ta’lim jarayoniga tadbiq etila boshlandi. Ammo, texnologiyalarning xilma-xilligi uni saralashda birmuncha murakkabliklar, chalkashliklarni keltirib chiqara boshladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Texnologiyalarda aql, mahorat va g‘oyalar, metodlar, shakllar, vositalar, natijalar integratsiyalashadi. Shu o‘rinda yangi pedagogik texnologiyalarni sodda va lo‘nda qilib rivojlantirish, tarbiyalash va o‘qitish maqsadlariga erishish uchunyo‘naltirilgan bilimlar va harakatlar yig‘indisi sifatida aniqlanishi mumkin. Pedagogik texnologiyalar 80-yillarda adabiyotlarda, o‘qituvchilar lug‘atlarida quyidagicha

ishlatila boshlandi: metodlar, shakllar, usullar, tashkiliy yechimlarni chog‘ishtirish yoki moslashtirib o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish maqsadiga erishishdagi o‘qituvchi va o‘quvchi, talabaning hamkorlikdagi harakati. Keyinchalik esa pedagogik texnologiyalar har doim hambo‘lganligini va u doimo, zamon, davr bilan birgalikda o‘ziga xos o‘zgarib, tajribalar orqali yangilanib turishi e’tirof etila boshladi. Darvoqe, jahondagi ko‘pgina mamlakatlar pedagogik amaliyotida shu kungacha o‘z mavqeini saqlab kelayotgan pedagogik tizimlardan chexiyalik faylasuf va pedagog Ya.A.Komenskiy, nemis psixolog va pedagogi I.F.Gerbard va amerikalik psixolog va pedagog J.Dyunlarning pedagogik nazariyalar eng yashovchan va umrboqiy nazariyalar bo‘lib hizmat qildi. Qanday va qancha bilim berilishi kerak, degan savolga Ya.A.Komenskiy bilim xajmi va turi qancha ko‘p bo‘lsa shunchayaxshi, degan fikr bildiradi [1].

MUHOKAMA

Aslida o‘qitish amaliyotida yagona ideal yondashuv yo‘q, balki turlicha o‘qitish metodlari, shakllari, o‘quv jarayoni modellari mavjud va ular mahoratlari, o‘z mifiktabini yarata olgan pedagoglar rolida turlicha sharoitda namoyish etmoqda va samara bermoqda. Shu o‘rinda o‘quv-tarbiya jarayoniga bo‘lgan yondoshuvlarni shartli ravishda uch turga ajratish mumkin, izohli- tasvirli, ijodiy va texnologik.

Yangi texnologiya ma’nosni u qaerda qo‘llanilishidan qat’iy nazar, oldingi texnologiyalarga nisbatan oz xarj evaziga ko‘p natijaga ega bo‘lishi lozim [3]. Pedagogika faniga qiyoslab o‘rgansak buni olimlarning fikrlari bilan tasdiqlasak bo‘ladi. V.Shatalov o‘zining mualliflik texnologiyasini – o‘qitishvaqtini tejashta va uning natijalarini yaxshilashga olib keladigan o‘zaro bog‘liq tadbirlar majmuini taklif etgan. Sh.Amanashvilining insonparvarlik texnologiyasi bolaga munosabatni o‘zgartirish orqali natijaga erishishni, M.Montessori texnologiyasi esa bolalarga bo‘lgan munosabatlar texnologiyasi, deb atash mumkin. Shuni takrorlash lozimki, har qanday vaziyatda texnologiyalarda jarayon va natija ajralmasdir. Vaqtga bog‘liq bo‘lgan natija dastlab jarayonda sodir bo‘ladi. Jarayon mahsulotga singib boradi. Jarayonda ham, natijada ham ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi tarkiblar uzviy birlashgan bo‘ladi. Bu hodisani quyidagicha xulosalash mumkin: agar texnologiya pedagogik jarayonning barcha jabhasiga va umumiy natijaga tegishli bo‘lsa, uni pedagogik texnologiya deb atash mumkin [4].

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, hozirgi davr o‘qitish shakl va metodlari talabalarni erkin, ijodiy fikrlashga, mustaqil ishlashga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu jarayonda talabalar ijodiy izlanishda, muammolar tahlili ostida uning yechimini topishga intiladi, guruhlar bilan ishlash jarayonida, o‘quvchi-o‘quvchi, talaba-talaba bilan muloqotorqali ularga birgalikda muammolar yechimi, tahlil jarayoni va albatta baholashga zamin yaratiladi. Demokratik tamoyillar, insoniylik va shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy o‘qitish shakllari

davr talabi bo‘lib, bunda dars jarayonining barcha talablari, o‘qituvchi va talabalarning manfaatlari bilan uyg‘unlashadi. Jahon tajribalari va milliy pedagogik jarayonlarda pedagogik texnologiyalarning o‘yg‘unligi masalasi ham muhim sanaladi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi.

Interaktiv metodlar – bu jamoa bo‘lib fikrlashdan iborat deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi [5]:

- talabaning dars davomida befarq bo‘lmaslikka mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- talabalarni o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta’minlashi;
- talabaning bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har birmasalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

XULOSA

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayan nazariy bilimlarni tahsil oluvchilarga yetkazib berish, ularga ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, talabalar faoliyatininazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Zamonaviy texnologiyalar shaxsga yo‘nalgani bilan o‘ziga xosdir. O‘quv jarayonida o‘quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy uslublarning qo‘llanishi o‘quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas’uliyatni his qilish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga va o‘zi tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini va shu o‘rinda ustozlarga bo‘lgan hurmatni oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika. T., 2016. 68 b.
2. Omonov X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T. 2018 y. 238 b.
3. Allayarova, S. N. (2019). pedagogik texnologiyalar va aktlarni o‘llash oliy ta’lim

- sifatini oshirish omili sifatida. *Jurnal Sotsialnykh Issledovaniy*, (6).
4. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. T., 2016. 261 b.
 5. B.Ziyomuxammadov. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2006.
 6. Xummamatova, K. (2020). Pedagogika oliv ukuv yurtlarida kredit ukitish tizimini tashkil yetish. Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI.